

Uzbekistan Airways uchuvchilarni qabul qilishini e'lon qiladi

2023 25 Yanvar

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi A320/321, Boeing 787/767/757 samolyotlariga havo kemasi komandiri va ikkinchi uchuvchilarni ishga qabul qilishini e'lon qilindi.

Nomzodlarga qo'yiladigan talablar:

1. A320/321, Boeing 787/777/767/757/737 havo kemalari uchun ruxsatnoma;
2. FA uchuvchisining amaldagi guvohnomasi (ATPL);
3. Amaldagi tibbiy guvohnoma (amal qilish muddati 6 oydan kam bo'lmagan);
4. ICAO 4 shkalasi va undan yuqori bo'lgan ingliz tili darajasi (amal qilish muddati 6 oydan kam bo'lmagan);
5. RNAV, RVSM, EDTO, FANS, CAT II ICAO parvozlariga ruxsatnoma;
6. 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatda parvoz ishidagi tanaffus;
7. HKKlar uchun A320/321 turidagi havo kemalarda parvoz vaqti - kamida 1500 soat, ikkinchi uchuvchilar uchun - kamida 1000 soat;
8. Rosaviatsiyadan guvohnomaning qonuniyligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

Hujjatlar quyidagi elektron pochtaga yuborilsin:

fd.commission@uzairways.com

Hujjatlarni qabul qilish 10.02.2023 yilgacha amalga oshiriladi.

Saralashning rejalashtirilgan sanasi 13-14.02.2023, Toshkent shahrida.

Tanlov bosqichlari:

1. Suhbat;
2. ICAO shkalasi bo'yicha ingliz tili darajasini tekshirish;
3. Trenajyor sinov.

Shartnoma tuzish muddati - 12 oy, keyinchalik uzaytirish bilan.

Tanlov ishtirokchilari tanlov o'tkaziladigan joyga va ortga qaytish uchun "Uzbekistan airways" AJ reyslariga aviachiptalar taqdim etiladi;

HKK uchun oylik maosh 8000 AQSH dollaridan, ikkinchi uchuvchi uchun esa 3000 AQSH dollaridan boshlanadi;

Mehnat ta'tili 45 ish kunigacha;

Uchuvchi va oilasi uchun yilda bir marta chegirmali aviachiptalar beriladi.

Eslatma: To'ldirishingiz va yuborishingiz kerak bo'lgan [ariza](#) ilova qilingan.